

XOLID HUSAYNIYNINING HAYOTI VA IJODI
("SHAMOL ORTIDAN YUGURIB") ASARI MISOLIDA

Axatova Dilnoza Allayor qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17458458>

Annotatsiya. Maqolada asli afg'onistonlik bo'lgan yozuvchi Xolid Husayniy hayoti va ijodi, asarlaridagi o'ziga xoslik haqida so'z boradi. Maqoladan ko'zlangan maqsad, o'zbek kitobxonlariga Xolid Husayniy asarlarining dunyoga kelish sabablari va asar voqealari yozuvchi hayoti bilan qanchalar bog'liq ekanligini ko'rsatib berish hamda, "Shamol ortidan yugurib" asarini biografik metodga ko'ra tahlil qilishdan iborat. O'zbek kitobxonlari orasida Xolid Husayniy asarlari haqida yaxlit, teran tushunchalarni uyg'otish va uning asarlari bilan yaqindan tanishtirish.

Kalit so'zlar: biografik metod, Afg'oniston, sovet istilosi, urush.

Annotation. The article discusses the life and literary work of Khaled Hosseini, a writer of Afghan origin, and the distinctive features of his creations. The purpose of the article is to show Uzbek readers the reasons behind the emergence of Hosseini's works, the extent to which the events in his novels are connected to his personal life, and to analyze the novel "The Kite Runner" using the biographical method. The study aims to provide Uzbek readers with a comprehensive and deep understanding of Hosseini's literary world and to introduce them to his works more closely.

Keywords: biographical method, Afghanistan, Soviet invasion, war.

Аннотация. В статье рассказывается о жизни и творчестве писателя афганского происхождения Халеда Хоссейни, а также об особенностях его произведений.

Цель статьи — показать узбекским читателям причины появления произведений Халеда Хоссейни, степень их связи с жизнью автора и проанализировать роман «Бегущий за ветром» с точки зрения биографического метода. Исследование направлено на формирование у узбекских читателей целостного и глубокого представления о творчестве Халеда Хоссейни и знакомство с его произведениями.

Ключевые слова: биографический метод, Афганистан, советская оккупация, война.

XXI asrga kelib globallashuv jarayoni butun insoniyat hayotini jadal qamrab oldi. Bu jarayon insonlar hayotini yaxshilash bilan birga, turli siyosiy urushlar, diniy ziddiyatlar, inson huquqlarini buzilish holatlarini ham ko'payishiga sabab bo'ldi. Jumladan, Afg'onistonda sovet istilosi vaqtida boshlangan va hozirgi kunga kelib yanada avj olgan siyosiy va diniy urushlar ko'plab begunoh insonlar, ayniqsa, yosh bolalarning bevaqt o'limiga, ulardagi bolalik zavqining yo'qolib borishiga sabab bo'lmoqda. Afg'onistondagi urushlar, ommaviy qirg'inlar, ayollar huquqlari poymol etilishi va ularga qilinayotgan turli zo'ravonliklar, bolalardan bolalikning tortib olinishi, diniy ziddiyatlar bilan bog'liq muammolar yozuvchilar asarlariga, adabiyotga ham ko'chmay qolmadi. Ko'plab ijodkorlar o'z asarlarida Afg'onistondagi murakkab va tahlikali hayotni yoritishgan.

Ana shunday ijodkorlardan biri afg'on-amerikalik sobiq shifokor va yozuvchi Xolid Husayniy bo'lib, uning asarlari urush o'choqlaridagi insonlar hayotini, vatanini tashlab boshqa joylarda yashashga majbur bo'lganlar taqdirini va ichki kechinmalarini, har qanday vaziyatda ham insoniyatini saqlab qola olgan insonlarni mahorat bilan tasvirlaydi.

Asli Afg'onistonlik bo'lgan, keyinchalik Amerika fuqaroligini olgan Xolid Husayniy 1965-yil Afg'onistonning Kobul shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. Otasi Afg'oniston Tashqi ishlar vazirligida faoliyat olib borgan. 1976-yilda otasi diplomatik lavozimi sabab Tehronga oilasi bilan ko'chib o'tadi. 1979-yilda uni Parij shahridagi Afg'oniston elchixonasiga o'tkazishadi. Oila ham Fransiyaga ko'chib o'tadi. Ayni shu yili Afg'onistonda sovet istilosi boshlanadi va Xolid Husayniyning oilasi vataniga qayta olmaydi. 1980-yilda Xolid Husayniyning otasi AQSHdan siyosiy boshpana so'rab, Kaliforniya shtatiga joylashadi. Xolid Husayniyning Amerikadagi hayoti ayni shu yillardan boshlanadi va ular Amerika fuqaroligini olishadi. Xolid Husayniy Amerikaga kelganda endigina 15 yoshda edi. Tahsilni Amerikada davom ettirdi.

Keyinchalik esa, bialogiya va tibbiyot bo'yicha o'qib, ichki kasalliklar shifokor bo'lib faoliyat olib bora boshladi. Xolid Husayniy shifokor sifatida 10 yildan ortiq ishladi. Shifokor bo'lishiga qaramay bo'sh vaqtlarida hikoyalar yozib turardi. Husayniyning yozuvchilik faoliyati 2001-yildan boshlanadi.

2003-yilda Husayniyning birinchi romani "The Kite Runner" ("Shamol ortidan yugurib") nashr etildi. Asar katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Xolid Husayniy maskur asarida Amir va Hasan ismli bolalar orqali afg'on bolalari hayoti, kechinmalari tasvirlanadi. Amir va Husayn orasidagi do'stlik har bir bola qalbida haqiqiy do'stlik, sadoqat nomli yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishda yordam beruvchi asardir. Qolaversa, asarda hasad, va'daga vafo, vijdon azobi, gunoh, tavba kabi mavzular ham o'z ifodasini topgan. Asar New York Times jurnalidagi asarlar ro'yxatida bir necha bor birinchilikni olgan¹. 2007-yilda esa asar asosida film olindi. Xolid Husayniyning ilk romani 70 dan ortiq tillarga tarjima qilindi. Yozuvchini dunyoga tanitgan bu asar Afg'onistom hayotining turli jihatlarini kitobxonga ochib beradi.

"Xolid Husayniy 2007-yil Book Expo America nomli tadbirdagi nutqini shunday boshlaydi: Men Hindiston, London, Sidney, Parij, Arkanzas va dunyoning turli joylaridan xatlar oldim. Kitobimni o'qiganlarni meni chin dildan qo'llab-quvvatlashdi. Ularning ko'pchiligi Afg'onistonga yordam yuborish yo'llarini so'rashdi. Ba'zilar esa afg'on yetimlarini farzandlikka olish istagini bildirishdi. Bu xatda men adabiyotning yagona, ammo beqiyos kuchini ko'rdim"².

Chindan ham, Xolid Husayniy o'zining asari orqali adabiyotning kuchini yana bir bor ko'rsatdi. Husayniy ilk asari shuhrat qozongach shifokorlikdan to'liq yozuvchilik faoliyatiga o'tdi. 2007- yilda yozuvchining "A Thousand Splendid Suns" ("Ming quyosh shu'lasi") asari nashrdan chiqdi. Bu asarda afg'on ayollarining ayanhli taqdiri, tolibonlar bosqinidan keyingi davrlarda ayollar huquqlarining poymol etilishi tasvirlanadi. Bu asar ham kitobxonlar tomonidan yuksak baholanadi. Yozuvchining keyingi asari "And The Mountain Echoed" ("Tog'lar ham sado berdi") 2013-yilda yozib tugallandi.

¹ New York Times Best Seller list, January 12, 2014. Retrieved February 11, 2015.

² "Negotiating the Self and the Other in Times of Globalization: Unveiling Afghan Lives through Select Novels of Khaled Hosseini | Ensemble"

2018-yilda esa, "Sea Prayer" ("Dengiz duosi") asari kitobxonlarga taqdim etildi. Xolid Husayniyning deyarli hamma asarlarida vatani tasviri beriladi. Qahramonlar esa Afg'on ayollari, bolalarini o'zida aks ettiradi. Maskur asarlarni o'qish orqali Afg'onistondagi vaziyatni bevosita o'zimiz guvohi bo'lgandek mutolaa qilamiz. Husayniy asarlari ko'pgina tanqidchilar tomonidan yurakni titratuvchi adabiyot sifatida baholangan.

Xolid Husayniyning vatandoshlarini asarlarida tasvirlash bilan bir qatorda, hozirgi kunga qadar ularga moddiy yordam ko'rsatishga ham harakat qilib keladi. Hozirgi kunda Xolid Husayniy Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha oliy komissarligi (UNHCR)da yaxshi niyat elchisi sifatida faoliyat olib boradi. Yozuvchi "Khaled Hosseini Foundation" ("Xolid Husayniy jamg'armasi")ni yo'lga qo'ygan bo'lib unda yig'ilgan va asari orqali keladigan barcha pullar Afg'onistondagi bolalar va ayollar uchun xolis taqdim etiladi.

Xolid Husayniy bir necha yil bevosita o'zi Suriya va Afg'oniston qochoqlari bilan ishlab ularni huquqlarini himoya qilish, tinch hududlarga ko'chirish, zarur dori-darmonlar va oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish bilan shug'ullangan.

Yozuvchi Afg'onistondagi voqealarga bevosita o'zi ham guvoh bo'lgan shaxs sifatida tasvirlarni juda aniq va yaqqol tasvirlaydi. U ko'pgina qochqinlar bilan bo'lgan suhbatlaridan eshitganlarini, shuningdek, o'z boshidan kechirganlarini asarlariga ko'chiradi. Har bir asarda yozuvchi shaxsiy hayoti bilan bog'liq tasvirlarni uchratish mumkin bo'lganidek, Husayniy asarlarida ham bu yaqqol seziladi. Shu o'rinda birgina "Shamol ortidan yugurib" asarini biografik metodga ko'ra tahlil qilar ekanmiz asar voqealarining ko'p qismlari yozuvchi hayoti bilan uzviy bog'liqligini guvohi bo'lamiz va qiziqarli ma'lumotlarga duch kelamiz. Jumladan, Xolid Husayniy intervyularidan birida bolalik yillari Kobulda yashagan kezlari amakivachchalari bilan laylak ko'rinishidagi varrak uchirishgani, bu Husayniyning eng yaxshi ko'rgan o'yinlaridan biri ekani haqida aytib o'tadi³. Uning mashhur romani "Shamol ortidan yugurib" asarida ham aynan laylak ko'rinishidagi varrak uchirish musobaqasi va unda ikki do'st Amir va Hasan ishtiroki tasvirlari beriladi. Asarning eng qizg'in nuqtasi sifatida ham ayni shu varrak uchirish musobaqasi va undan keyingi sodir bo'lgan voqealarni aytish mumkin.

Asar qahramonlaridan biri Amir, otasi bilan vatanni tark etgan keyin 30 yoshdan keyingina Afg'onistonga qaytadi. Bu o'rinda ham yozuvchi bevosita o'z hayotini qahramonida aks ettiradi. Sababi Xolid Husayniy ham vatanini tark etgandan so'ng 2003-yilgacha, ya'ni 38 yoshigacha qayta olmaydi. Ilk bor vataniga qaytib guvohi bo'lganlari ham kitoblarida tasvirlaganlaridan ko'ra og'irroq ahvolda ekanini ko'rib aybdorlik hissi ila Amerikaga qaytadi. Ayni mana shu, Kobulga qilingan safari chog'ida guvohi bo'lgan voqealar keyinchalik Husayniyning yangi romani uchun g'oya beradi. Ko'rganlari asosida yaratilgan asari "Ming quyosh shu'lasi" dunyoga keladi. Unda yozuvchi ta'biri bilan aytganda ikki ayol Maryam va Layloning chidab bo'lmas qiyinchiliklarga chidashi tasvirlangan voqealar o'z ifodasini topgan. Yozuvchi bir necha bor o'z yurti va asarlari haqida nufuzli gazeta jurnallarda, shuningdek ommaviy uchrashuvlarda so'zlab beradi. Ana shunday nutqlaridan birida yozuvchi "Shamol ortidan yugurib" asaridagi Amir bilan otasi eski narsalar sotadigan bozorda sotuvchilik qilgan tasvirni so'zlar ekan, "... men ham otam bilan shunday qilganman deya so'zlab beradi.

³ ."Khaled Hosseini, M.D. Biography and Interview". www.achievement.org. American Academy of Achievement

Shuning uchun romanda ko‘p jihatdan o‘zimni ko‘raman”⁴ – deydi yozuvchi. Biografik metodga ko‘ra tahlil qiladigan bo‘lsak, asar yozuvchi hayoti bilan ko‘p jihatdan bog‘liq ekanini ko‘ramiz.

Xalosa qiladigan bo‘lsak, Xolid Husayniy Afg‘oniston hayotini har tomonlama o‘z asarlarida yoritgan. Asarlari orqali Afg‘on madaniyatini, bu millatning o‘ziga xos jihatlarini butun dunyoga tanitgan afg‘on yozuvchisi bo‘lib qoladi. Yozuvchi butun umr vatani bilan birga bo‘lishga uni qo‘llashga intilib kelmoqda. Shuningdek, bu haqida yozuvchi shunday deydi: ”

Yozgan har bir satrlarim yo‘qotgan bolaligim va yo‘qolgan vatanimga maktubimdir". Albatta, har bir afg‘on Xolid Husayniy bilan faxrlanishi tabiiy. Shu o‘ronda aytish joizki, Xolid Husayning "Shamol ortidan yugurib " asarini har bir 15 yoshgacha bo‘lgan o‘smir albatta o‘qishi lozim. Chunki, bu asar bolada do‘stlik, hasad, va'daga vafo, gunoh, sadoqat, insoniylik kabi tushunchalarni teran anglab yetishida muhim ahamiyatga ega asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A Critical Response to the Pashtun Bashing in The Kite Runner, by Nationalist Pashtun Rahmat Rabi Zirakyar". Dawat Independent Media Center (DIMC). Archived from the original on August 15, 2014
2. "Negotiating the Self and the Other in Times of Globalization: Unveiling Afghan Lives through Select Novels of Khaled Hosseini | Ensemble"
3. Grossman, Lev (May 17, 2007). "The Kite Runner Author Returns Home". Time. ISSN 0040-781X. Retrieved May 28, 2021
4. Miller, David (June 7, 2013). "Khaled Hosseini author of Kite Runner talks about his mistress: Writing". Loveland Magazine. Archived from the original on August 31, 2013. Retrieved August 4, 2013.
5. "Khaled Hosseini, M.D. Biography and Interview". www.achievement.org. American Academy of Achievement.
6. Xolid Husayniy. (2021)."Shamol ortidan yugurib". Yangi asr avlodi.
7. Xolid Husayniy. (2022). "Ming quyosh shu'las". Yoshlar matbuoti.
8. Kaur, Harmeet (August 21, 2021). "The author of 'The Kite Runner' has a message for anyone worried about Afghanistan". CNN. Retrieved August 22, 2021.

⁴ ."Khaled Hosseini, M.D. Biography and Interview". www.achievement.org. American Academy of Achievement